

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERISTETI

“IQTISODIYOT” FAKULTETI

*Qo'lyozma huquqida*  
UDK: 336.5:658(575.1)

ABBOSOVA MUXLISAXON SHUXRAT QIZI

TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI  
XALQARO TAMOYILLAR ASOSIDA TAKORNILLASHTIRISH

70310102 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)  
mutaxassisligi bo'yicha

magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S Y E R T A T S I Y A

Himiy rahbar:

I.f.d., (DSc), prof. v.b. A. Ismailov

TOSHKENT – 2024

Magistrlik dissertatsiya ishi "Yashil" iqtisodiyot kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan

20 sonli bayonnomasi « 24 » aprel 2024 y.

Himiy rahbar: i.f.d., (DSe), prof. v.b. A. Ismailov

Magistr: M.Sh. Abbosova



Dissertatsiya ishi Iqtisodiyot fakultetida 2024 yil " 20 " 05  
№ 2/14 raqami bilan ro'yxatga olingan.

"Himoyaga tavsiya etiladi"

"Yashil" iqtisodiyot kafedrasini  
mudiri, prof. I. Xotamov

" 07 " may 2024 yil

Himoya 2024 yil " 20 " 05 soat 14<sup>00</sup> da "Texnopark"  
mas'uliyati cheklangan jamiyatida bo'lib o'tadi.

## ANNOTATSIYA

Ushbu magistrlik dissertatsiyasida tijorat banklarida korporativ tuzilmalarni tashkil etish va rivojlantirish, ular faoliyatiga innovatsion jarayonlarni tatbiq etish, boshqaruvning zamonaviy va samarali usullarini qo'llash tadqiq etilgan. Bu esa «Dunyo bozoridagi ilmiy hajmdor mahsulotlarning 36 foizi AQSH, 30 foizi Yaponiya, 22 foizi Xitoy davlati hissasiga to'g'ri kelishini anglatadi. Har million aholiga nisbatan ilmiy tadqiqotlar bilan band bo'lgan mamlakatlar reytingida 1-o'rinda Isroil 8250 nafar, 2-o'rinda Janubiy Koreya 7113 nafar, 3-o'rinda Yaponiya 5210 nafarni tashkil etadi. Ilmiy tadqiqotlari uchun Janubiy Koreya YAIMga nisbatan 4,3 foiz yoki 73,1 mlrd. AQSH dollari miqdorida mablag' ajratgan, Isroil davlati YAIMga nisbatan 4,2 foiz, Yaponiya 3,4 foiz, Shvetsiya esa 3,1 foiz yoki 14,2 mlrd. AQSH dollari miqdorida ilmiy tadqiqot ishlarini moliyalashtirgan». Shuning uchun jahon iqtisodiyotini rivojlantirishda korporativ tuzilmalar nisbatan ustuvorlikka ega bo'lib, korporatsiyalardagi innovatsion jarayonlarni strategik boshqarish uslubiyotini takomillashtirishni talab etadi. Jahonda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida korporativ tuzilma ko'rinishidagi xo'jalik subektlarida innovatsion jarayonlarning strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda boshqaruvning zamonaviy uslublarini joriy etish, korporativ boshqaruv ishtirokchilari uchun ochiqlikni ta'minlash, korxonalar innovatsion rivojlantirish strategiyasini aniqlash va ular faoliyati samaradorligini baholashga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunday vazifalarning samarali hal etilishi aksiyadorlik jamiyatlari kuzatuv kengashining tashkiliy asoslarini takomillashtirish orqali ularning faoliyati samaradorligini ta'minlash, yirik va minoritar aksiyadorlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida risklarni boshqarish va nazorat qilish amaliyotini joriy etish, aksiyadorlik korxonalarini innovatsion salohiyatini reyting baholash tizimini takomillashtirish hamda uzoq muddatli istiqboldagi prognoz parametrlarini ishlab chiqish hamda innovatsion jarayonlarning strategik boshqaruv mexanizmlarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishni taqozo etadi.

**Kalit so'zlar:** tijorat banklari, korporativ tuzilmalar, innovatsion jarayonlar, boshqaruvning zamonaviy va samarali usullari, korporativ boshqaruv ishtirokchilari, strategik boshqaruv, risklarni boshqarish, innovatsion salohiyat.

## ANNOTATION

In this master's thesis, the organization and development of corporate structures in commercial banks, the implementation of innovative processes in their activities, and the use of modern and effective management methods are studied. This means that 36 percent of the world's scientific volume products come from the USA, 30 percent from Japan, and 22 percent from China. In the ranking of countries engaged in scientific research per million population, Israel is on the 1st place with 8250 people, South Korea is on the 2nd place with 7113 people, and Japan is on the 3rd place with 5210 people. For scientific research, South Korea spent 4.3 percent of GDP or 73.1 billion US dollars, Israel 4.2 percent of GDP, Japan 3.4 percent, and Sweden 3.1 percent or 14.2 billion dollars." Therefore, in the development of the world economy, corporate structures have relative priority, and it requires the improvement of the methodology of strategic management of innovative processes in corporations. In the context of the rapid development of the digital economy in the world, the implementation of modern methods of management in the scientific researches on improving the strategic management system of innovative processes in economic entities in the form of a corporate structure, ensuring openness for the participants of corporate management, determining the innovative development strategy of enterprises and their special attention is paid to scientific research aimed at evaluating the effectiveness of its activities. The effective solution of such tasks is to ensure the effectiveness of their activities by improving the organizational foundations of the supervisory board of joint-stock companies, to regulate the relations between major and minority shareholders, to introduce the practice of risk management and control in the activities of joint-stock companies, and to introduce a rating system for the innovative potential of joint-stock enterprises, improvement and the development of forecast parameters in the long term perspective, as well as the improvement of strategic management mechanisms of innovative processes based on international standards.

**Key words:** commercial banks, corporate structures, innovative processes, modern and effective methods of management, participants of corporate management, strategic management, risk management, innovative potential.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	8
Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	8
Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.....	9
Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	10
Tadqiqotning obekti va predmeti.....	11
Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	12
<b>I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI</b> .....	13
1.1. Tijorat banklarida korporativ tuzilmalarning bozor sharoitlariga moslashuvini ta'minlashda innovatsion jarayonlarni boshqarishning zarurligi va ahamiyati.....	13
1.2. Tijorat banklarida innovatsion jarayonlarni boshqarish tamoyillari va uning o'ziga xos xususiyatlari.....	23
1.3. Tijorat banklarida innovatsion jarayonlarni boshqarishning uslubiy asoslari.....	29
<b>II BOB. METODOLOGIY</b> .....	43
2.1. Ma'lumotlar manbalarini.....	43
2.2. Tadqiqot dizayni.....	43
2.3. Tadqiqotda qo'llanilgan uslublar.....	44
2.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar.....	49
2.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	50
2.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	50
<b>III BOB. TAHLIL VA NATIJALAR</b> .....	54
3.1. AIFB "Ipoteka-bank" Mehnat filiali faoliyati tavsifi va ko'rsatkichlari tahlili.....	54
3.2. Korporativ tuzilmalarning innovatsion muhitini shakllantirishda strategik boshqaruv usullarini joriy etish.....	60
<b>XULOSA</b> .....	67
Foydalanilgan adabiyotlar.....	70
Ilovalar.....	85

## 1. Kirish

1.1. Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida korporativ tuzilmalarni tashkil etish va rivojlantirish, ular faoliyatiga innovatsion jarayonlarni tatbiq etish, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarini modernizatsiya qilish, boshqaruvning zamonaviy va samarali usullarini qo'llash iqtisodiy taraqqiyotning asosiy vositalaridan biriga aylannoqda. «Dunyo bozorida ilmiy hajmdor mahsulotlarning 36 foizi AQSH, 30 foizi Yaponiya, 22 foizi Xitoy davlati hissasiga to'g'ri keladi. Har million aholiga nisbatan ilmiy tadqiqotlar bilan band bo'lgan mamlakatlar reytingida 1-o'rinda Isroil 8250 nafar, 2-o'rinda Janubiy Koreya 7113 nafar, 3-o'rinda Yaponiya 5210 nafarni tashkil etadi. Ilmiy tadqiqotlari uchun Janubiy Koreya YAIMga nisbatan 4.3 foiz yoki 73.1 mlrd. AQSH dollari miqdorida mablag' ajratgan. Isroil davlati YAIMga nisbatan 4.2 foiz, Yaponiya 3.4 foiz, Shvetsiya esa 3.1 foiz yoki 14.2 mlrd. AQSH dollari miqdorida ilmiy tadqiqot ishlarini moliyalashtirgan»<sup>1</sup>. Shuning uchun jahon iqtisodiyotini rivojlantirishda korporativ tuzilmalar nisbatan ustuvorlikka ega bo'lib, korporatsiyalardagi innovatsion jarayonlarni strategik boshqarish uslubiyotini takomillashtirishni talab etadi.

Jahonda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida korporativ tuzilma ko'rinishidagi xo'jalik subyektlarida innovatsion jarayonlarning strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda boshqaruvning zamonaviy uslublarini joriy etish, korporativ boshqaruv ishtirokchilari uchun e'tidalikni ta'minlash, korxonalar innovatsion rivojlantirish strategiyasini aniqlash va ular faoliyati samaradorligini baholashga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Amalga oshirilayotgan izlanishlarda korporativ tuzilmalarda innovatsion jarayonlarni strategik boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, innovatsion jarayonlarni strategik boshqarishning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish,